



MALAKA VA KO'NIKMLAR NAZORATI ZAMONAVIY INFORMATIKANI O'QITISH

To'rayeva Gulchiroy Sheralievna

Assistant

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotasiya: AKT larning kirib kelishi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga olib kelishi shubhasiz, bu jarayon ta'lim maqsadlarini qayta ko'rib chiqish bilan birga olib boriladi, bu esa ta'lim tarkibiy komponentasini o'zgartirishga olib keladi, Zamonaviy Informatikani o'qitish jarayonini tashkil etishning optimal yechimini topish muammosi

Kalit so'zlari: AKT, Informatika va axborot texnologiyalari, professional mahurat, Zamonaviy Informatika, sifat, ta'lim

Informatika va axborot texnologiyalari (Informatika va AT) – o'sib kelayotgan avlodga axborotlar bilan ishlash texnologiyalari va ulardan foydalanish jarayonlarini puxta o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllanishi va o'sishi ko'p jihatdan axborot texnologiyalariga bog'liqdir. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Jamiyatimizning hozirgi zamonaviy rivojlanish bosqichida, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish uchun yangi avlod o'quv adabiyotlari yaratish va professoro'qituvchilarning professional mahoratlarini oshirish bo'yicha prezidentimiz tomonidan yuqori talablar qo'yilgan. Shuningdek, jamiyatimizning har bir sohasida AKT larning kirib kelishi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishga olib kelishi shubhasiz, bu jarayon ta'lim maqsadlarini qayta ko'rib chiqish bilan birga olib boriladi, bu esa ta'lim tarkibiy komponentasini o'zgartirishga olib keladi [1]. Zamonaviy Informatikani o'qitish jarayonini tashkil etishning optimal yechimini topish muammosi ko'pgina uslubiy darsliklar, o'quv-uslubiy komplekslar va didaktik materiallar paydo bo'lganligiga qaramay hali hamon to'la hal qilinmagan. Bu o'quvuslubiy materiallar va o'quv dasturlar (ishchi o'quv dasturlar) muallif nuqtai-nazarini aks ettiradi, hamda metodik jihatdan asoslangan bo'lsada, berilgan fan sohasi haqida to'liq tasavvur hosil qilmaydi. Mana shu sababli informatikani o'qitishning turli metodlari paydo bo'ldi. Bu muammoning yechimi sifatida yondashuvlardan biri - integratsiya prinsipiga asoslangan bo'lib, unga ko'ra o'quv ta'lim jarayonida barcha o'quv-metodik komplekslar va axborot resurslarini qo'llashni taqazo etadi, natijada sub'ektiv shartlardan qat'iy nazar fan bo'yicha yaxshi ta'limiy-axborot muhiti shakllanadi. Integratsion yondashuvni amalga oshirish uzluksiz informatika kursi bo'yicha o'quv



dasturlari kompleksini ishlab chiqishni va nazorat tizimini tashkil qilishni talab etadi. Natijada rivojlanish yo'nalishi berilgan ssenariya ko'rinishidagi o'quv jarayonini tashkil etishning dinamik oson moslashuvchan modellari yaratiladi. Bu model 65 doirasida o'qitish tarkibi va tashkil qilinishi bo'yicha optimal o'qitish strukturasi ishlab chiqilishi mumkin. Bilimlar nazorat o'quv jarayonining eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'qitishning barcha bosqichlarida uni to'g'ri tashkil qilish, oxir oqibat ta'lim sifatini belgilaydi.

Axborot, ma'lumot va bilim haqida. Axborotli jarayonlar. Axborotning sifat ko'rsatkichlari. Axborot miqdorining o'lchov birliklari: bit, bayt, kilobayt, megabayt, gigabayt, terabayt, petabayt. Axborotni tasvirlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish. Axborot texnologiyalari haqida. Axborot texnologiyalari turlari. Axborot texnologiyalarining ichki va tashqi omillari. Axborot uzatish usullari va vositalari. Axborot texnologiyalarining axborotlashgan jamiyatdagi o'rni. Axborot tizimlari haqida. Axborotlashgan jamiyat. Axborot madaniyati. Jamiyatni axborotlashtirishning xuqukiy asoslari. Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizlari. Jamiyatning axborot resurslari, ta'limiy axborot resurslar. Internet, axborot xavfsizligi, axborotlardan foydalanishda xuquq va ahloqiy normalar. Kasbiy faoliyatda axborotning roli va ahamiyati (turli kasbiy sohalar misolida). Multimedia texnologiyalari. Ofis dasturlar paketi va uning tarkibi. Hujjat tayyorlash. Matn muharrirlari. Taqdimot va uni yaratish. Ma'lumotlar ombori. Elektron jadval muharrirlari. Grafik ob'ektlar va ularni kompyuterda tasvirlash usullari.

O'z navbatida nazorat jarayoni tarkibi quyidagilar hisoblanadi: A) O'qitish natijalarini tekshirish (to'g'ri yoki noto'g'ri) va ularni o'lchash (qabul qilingan o'lchov tizimiga (reyting nizomiga) mos ravishda); B) Baholashga xuddi bir jarayon sifatida qarash, bu jarayonda talabalar harakati kuzatib boriladi va etalon (namuna) yoki qabul qilingan ko'rsatkichlar bilan taqqoslash amalga oshiriladi; hamda baholashga xuddi natija sifatida qarash.

Nazoratlarga nafaqat baholash, balki quyidagi uch turdagi vaziflarni bajaruvchi jarayon deb qarash maqsadga muvofiq: 1) U bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqaradi, ya'ni xatolarni ko'rish, o'qitish natijalarni baholash, bilim, malaka va ko'nikmalarlarni to'g'rilash (korreksiyalash) vazifasini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi. 2) U bilim olishga rag'batni tarbiyalaydi va ijodiy faoliyatga undaydi. To'g'ri tashkil qilingan nazorat tizimi o'qitish natijalari uchun javobgarlik hissini uyg'otish imkonini beradi, xatolarni to'g'rilashga bo'lgan maqsadli ishlashga harakat imkonini beradi; 3) U o'qitish va rivojlanish vositasi hisoblanadi. Nazorat jarayonining katta qismi o'qitish va rivojlantirish xarakteriga ega, chunki bunda talabaga xatolari tushuntiriladi, o'quv materialini tushurish uchun nimalar qilish kerakligi tushuntiriladi, to'g'ri javob topishga yordam beradi. Bundan tashqari, talabaning shaxsiy fazilatlarini: iroda, sog'lom raqobat hissi, muvaffaqiyatiga intilish kabi xislatlari rivojlantiriladi. Nazorat usullari klassifikatsiyasi (nazorat joyi bo'yicha, tashkil qilish usuli bo'yicha, axborot olish usuli bo'yicha) fan o'qituvchilari tomonidan



moslashtirilishi mumkin, ammo [2] da keltirilgan an'anaviy sxemalarga asoslangan. Baholash usuli va yetakchi funksiyani qo'llash bo'yicha sinflashda turli axborot manbalaridan jumladan [3] dan foydalanish mumkin. Zamonaviy informatikani o'qitishda yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish va keltirilgan prinsiplarga amal qiluvchi umumiy o'qitish metodlaridan foydalaniladi, jumladan, ta'lim bosqichlarida nazorat o'rni bo'yicha (dastlabki (kiruvchi test kabi) nazorat turi, joriy (tezkor) nazorat, yakuniy nazorat (chiquvchi test kabi); baholash usuli bo'yicha (an'anaviy baholash tizimi-baholash 5 ballik shaklida, reyting nazorat tizimi, "sifat" texnologiyasi asosan kuzatuv metodi; nazoratni tashkil qilish usuli bo'yicha (avtomatik, o'zaro baholash, o'qituvchi nazorati, o'z-o'zini nazorat; yetakchi funksiyadan foydalanish bo'yicha (diagnostik nazorat, rag'batlantiruvchi nazorat); nazorat davomida axborot olish usuli bo'yicha (og'zaki metod (ya'ni turli so'rovlar, evristik suhbatlar imtihonlar, diskussiyalar), yozma metod, ommaviy metodlar (amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish jarayonini kuzatishda bevosita loyihalar va presentiyalarni bajarish). Shunday qilib nazoratlar jarayonida o'qitishning uchlik vazifasi amalga oshiriladi: ta'lim, rivojlantirish va tarbiyalash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – T: 1997. 66
2. Метешкин К.А. Теоретические основы построения интеллектуальных систем управления учебным процессом в вузе/ К.А. Матешкин/ Харьков: Экограф, 2000. -276 с.
3. Челак Е.Н., Конопатова Н.К. Развивающая информатика: Методические пособие для учителя. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000.
4. Muradova F. R. et al. Psychological aspects of computer virtual reality perception //Journal of critical reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 18. – С. 840-844.
5. MURADOVA F., MURADOVA Z., KADIROVA S. Methods of development of educational electronic resources //Eurasian Journal of Science and Technology. – 2019. – Т. 1. – №. 2.
6. MUHAMMADOVNA K. S., Erkinjonovich S. B. PLATFORMA AND TRADING SYSTEM //Confrencea. – 2022. – Т. 4. – №. 4. – С. 58-62.
7. Muhammadovna K. S. FEATURES AND ADVANTAGES OF E-TEXTBOOKS IN THE EDUCATION SYSTEM //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 3. – С. 94-97.
8. Glushenkova, A. I., Sagdullaev, S. S., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Oil cake of sesamium Acad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (p. 202).
9. Baxtiyorovna, D. M. (2022). Food safety management. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 8, 64-67.



10. Bakhtiyarovna, D. M., Shakhidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Investigation Of The Effect Of Plant Extracts On The Rheological Properties Of Wheat Dough. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 2(09), 41-47.

11. Davlyatova, M. B., Shernazarova, D. S., & Rashidova, G. N. (2022). Studying the effect of plant extracts on the rheological properties of wheat flour. *Science and Education*, 3(12), 398-405.

12. Davlyatova, m., & Rashidova, g. (2022). получение целебных национальных хлебобулочных изделий с добавками по стандарту. *science and innovation*, 1(a5), 135-149.

13. Bahtiyarovna, D. M., Shakhsaidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Nutritional And Biological Value Of National Breads With The Use Of Vegetable Extracts. *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 2(09), 85-96.